

**NAVOIY DAVLAT KONCHILIK VA TEXNOLOGIYALAR
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.17/04.06.2021.T.06.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**NAVOIY DAVLAT KONCHILIK VA TEXNOLOGIYALAR
UNIVERSITETI**

SAIDAXMEDOV AKTAM ABDISAMIYEVICH

**MIS ERITISH SANOATI CHANG VA GAZLARI TARKIBIDAN RANGLI
VA NODIR METALLARNI AJRATIB OLISH TEXNOLOGIYASINI
ISHLAB CHIQISH VA TAKOMILLASHTIRISH**

04.00.14 – Foydali qazilmalarni boyitish

**TEXNIKA fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Navoiy – 2025

Doktorlik dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата докторской диссертации

Content of the abstract of doctoral dissertation

Saidaxmedov Aktam Abdisamievich

Mis eritish sanoati chang va gazlari tarkibidan rangli va nodir metallarni
ajratib olish texnologiyasini ishlab chiqish va takomillashtirish 3

Саидахмедов Актам Абдисамиевич

Разработка и усовершенствование технологии извлечения цветных и
благородных металлов из пыли и газов медного производства 29

Saidakhmedov Aktam Abdisamievich

Development and improvement of technology for extracting non-ferrous
and noble metals from dust and gases of copper production 57

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works 61

**NAVOIY DAVLAT KONCHILIK VA TEXNOLOGIYALAR
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.17/04.06.2021.T.06.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**NAVOIY DAVLAT KONCHILIK VA TEXNOLOGIYALAR
UNIVERSITETI**

SAIDAXMEDOV AKTAM ABDISAMIYEVICH

**MIS ERITISH SANOATI CHANG VA GAZLARI TARKIBIDAN RANGLI
VA NODIR METALLARNI AJRATIB OLIH TEXNOLOGIYASINI
ISHLAB CHIQISH VA TAKOMILLASHTIRISH**

04.00.14 – Foydali qazilmalarni boyitish

**TEXNIKA fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Navoiy – 2025

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.4.DSc/T846 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universitetida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.nsumt.uz) va «Ziyonet» Axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

| | |
|----------------------------|---|
| Ilmiy maslahatchi: | Xasanov Abdurashid Saliyevich texnika fanlari doktori, professor |
| Rasmiy opponentlar: | Ergashev Ulug‘bek Abdurasulovich texnika fanlari doktori, professor Shadrunova Irina Vladimirovna texnika fanlari doktori, professor Tastanov Yerbulat Adiyatovich texnika fanlari doktori, professor |
| Yetakchi tashkilot: | Milliy tadqiqotlar texnologik universiteti «MISIS»ning Olmaliq shahridagi filiali |

Dissertatsiya himoyasi Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti huzuridagi DSc. 17/04.06.2021.T.06.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil « 17 » 09 soat 14⁰⁰ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 210100, Navoiy shahri, G‘alaba shoh ko‘chasi, 76v-uy. Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti majlislar zali. Tel.: (79) 223-23-32; faks: (79) 223-49-66; e-mail: info@nsumt.uz. www.nsumt.uz).

Dissertatsiya bilan Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (220 raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 210100, Navoiy shahri, G‘alaba shoh ko‘chasi, 76v-uy, Tel.: (79) 223-23-32; faks: (79) 223-49-66.

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil « 05 » 09 kuni tarqatildi.
(2025 yil « 05 » 09 dagi 24 raqamli reestr bayonnomasi)



K. Sanakulov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi, t.f.d., professor

O.U. Fuzaylov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash kotibi, t.f.f.d., (PhD)

A.U. Samadov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash oshidagi
Ilmiy seminar raisi, t.f.d., professor

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda foydali qazilmalar zaxiralarining kamayib borishi va jahon bozorida metallar narxlarining oshishi, murakkab kon-texnik va tabiiy-iqlim sharoitlarida foydali komponentlari kam miqdorda bo‘lgan konlarni o‘zlashtirish, shuningdek, texnogen kelib chiqishga ega mineral resurslarni qayta ishlashga jalb etish uchun qulay sharoit hisoblanadi. Shu bilan birga, oltin ajratib olish fabrikalari, mis eritish zavodlarining sanoat texnogen chiqindilari bo‘lgan texnogen materiallarni qayta ishlash – metallurgiya korxonalaridagi eritish jarayonida hosil bo‘lgan shlaklar, changlar hamda sulfat kislota sexlari shlamlari - rangli, qimmatbaho va nodir metallarni ajratib olishning samarali texnologiyalarini yaratishga butunlay yangicha yondashuvni talab qiladi hamda texnologik, tashkiliy va boshqa muammolarni hal etishni taqozo etadi. Mis eritish sanoatida, eritish va konverter pechlaridan chiqadigan chang-gaz aralashmasi tarkibida rangli va nodir metallar ko‘p miqdorda mavjudligi aniqlandi. So‘nggi yillarda ushbu texnogen xomashyo va materiallarni kompleks qayta ishlash iqtisodiy va atrof-muhitni muhofaza qilish nuqtai nazaridan katta ahamiyatga ega bo‘lib qolmoqda. Yaqin kelajakda, mazkur texnogen chiqindilardan rangli (Pb, Cu, Zn) va nodir (Au, Pt, Pd, Ag) metallarni ajratib olish texnologiyasini ishlab chiqish, takomillashtirish va amaliyotga joriy etish alohida ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda jahonda kon-metallurgiya sanoatida ko‘p yillar davomida to‘planib qolgan texnogen chiqindilarni qayta ishlash bo‘yicha faol ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Shu munosabat bilan, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar hajmini ko‘paytirish, rangli va qimmatbaho metallar ishlab chiqarishda tabiiy foydali qazilmalar o‘rnini bosuvchi texnogen chiqindilarni utilizatsiya qilish, texnogen chiqindilardan rangli va nodir metallarni ajratib olishning yangi texnologiyalarini ishlab chiqish, ushbu materiallardan metallarni ajratib olish darajasini oshirish uchun mavjud texnologiyalarni takomillashtirish masalalariga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Respublikamizda “Olmaliq kon-metallurgiya kombinati” AJ ishlab chiqarish korxonasi samaradorligini oshirish bo‘yicha ilg‘or ilmiy asoslangan chora-tadbirlarni joriy qilib, qator ilmiy-amaliy natijalarga erishilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorida¹ O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasining to‘rtinchi yo‘nalishining to‘rtinchi bandida “...sanoatni sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish, mahalliy xomashyo manbalarini chuqur qayta ishlash, tayyor mahsulot ishlab chiqarishni jadallashtirish, yangi turdagi mahsulotlar va texnologiyalarni o‘zlashtirish...” — bo‘yicha muhim vazifalar belgilab berilgan. Ushbu vazifalardan kelib chiqqan holda, qayta ishlanayotgan texnogen xomashyolardan rangli va nodir metallarni to‘liq ajratib olishning yangi texnologiyalarini ishlab chiqish va takomillashtirishga qaratilgan tadqiqotlar katta ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

¹O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022 - 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida"gi PF-60-son Farmoni

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi¹, 2021 yil 24 iyundagi PF-5159-son “Kon-metallurgiya sanoati va u bilan bog‘liq boshqa sohalarni rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmonlarida, shuningdek, 2020 yil 26 maydagi PQ-4731-son “Olmaliq KMK AJ konlari negizida rangli va qimmatbaho metallar ishlab chiqarishni kengaytirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarorida hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning Respublika ilm-fan va texnologiyalari rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga muvofiqligi. Mazkur tadqiqot ishi Respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning VII. “Yer to‘g‘risidagi fanlar (geologiya, geofizika, seysmologiya va minerallarni qayta ishlash)” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar tahlili².

Sulfat kislotasi ishlab chiqarishning shlamlari va mayda changlarni qayta ishlab, ulardan qimmatbaho metallarni ajratib olishga yo‘naltirilgan ilmiy izlanishlar jahonning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta‘lim muassasalari, jumladan: Impala platinum limited (JAR), INCO - yirik nikel ishlab chiqaruvchi (Kanada), Pekin kon-metallurgiya instituti (Xitoy), Engelhard minerals and chemicals, Gemini, Mattie Bishop, Martin Metals Company (AQSh), Jonson Mattie Limited (Great Britain), Krassvetmet (Rossiya), Colorado school of mines (AQSh), el-Paso texnika universiteti (AQSh), University of Concepcion (Chili), Toronto universiteti (Kanada), Uxan fan va texnologiyalar universiteti (Xitoy), Augsburg universiteti (Germaniya), Koreya noyob metallar instituti (Janubiy Koreya), «Olmaliq kon-metallurgiya kombinati» AJ, Milliy tadqiqotlar texnologik universiteti “MISiS” (Rossiya), Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti (O‘zbekiston), Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universitetida (O‘zbekiston) olib borilmoqda.

Olib borilayotgan tadqiqotlar natijasida ushbu turdagi texnogen chiqindilardan rangli va nodir metallarni ajratib olish texnologiyasini ishlab chiqish va takomillashtirish bo‘yicha qator, jumladan, quyidagi ilmiy natijalar olingan: pirometallurgiya texnologiyalaridan foydalangan holda rangli metallarni ajratib olish texnologiyasi ishlab chiqilgan (Beyli Pratt - Sparrows Point kompaniyasi, AQSh va Estelle Huttenverke kompaniyasi, Germaniya); shlamlar, temir oksidi va qo‘rg‘oshin sulfat qo‘shimchalari bilan birgalikda sulfat-natriyli elektrli eritish usuli bilan changdan og‘ir rangli metallarni, shuningdek, nodir (kadmiy, osmiy va reniy) metallarni ajratib olish texnologiyasi yaratilgan ("Qozoqmis" MChJ korxonasi); gaz tozalash mahsulotlaridan selen, reniy va osmiyni ajratib olishning gidrometallurgik texnologiyasi yaratilgan (Kolskaya KMK, RF).

Dunyoda, metallurgiya sanoati chang-gaz mahsulotlari tarkibidan rangli va nodir metallarni ajratib olish texnologiyasini yaratish va takomillashtirish bo‘yicha

² <https://marketing.rbc.ru/landings/dragotsennye-metally/>, <https://ru.investing.com/equities/impala-platinum-holdings-ltd>, <https://www.mineral.ru/Analytics/worldevents>, <https://www.krastsvetmet.ru/>.

qator, jumladan, quyidagi ustuvor yoʻnalishlarda tadqiqotlar olib borilmoqda: ikkilamchi texnogen xomashyolardan rangli va nodir metallarni ajratib olish texnologiyasini ishlab chiqish va takomillashtirishning uslubiy asoslarini yaratish; qimmatbaho metallarni kimyoviy boyitish va tanlab choʻktirishning maqbul texnologiyasini yaratish maqsadida ularning kimyoviy, mineralogik va granulometrik tarkibini batafsil tadqiq etish hamda qimmatbaho metallarni tanlab eritish va tanlab choʻktirish bilan ajratish, shuningdek, eritmalarni filtrlash uchun yuqori tezlik va samaradorlikni taʼminlaydigan qulay sharoitlar yaratish.

Muammoning oʻrganilganlik darajasi. Koʻp yillar davomida rangli va nodir metallarni mineral va texnogen xomashyolardan, jumladan mis eritish zavodlarining sulfat kislotasi ishlab chiqarish shlamlari va oʻta mayda konverter changidan ajratib olishni oʻrganish rivojiga xorijiy va mahalliy olimlar: Smirnov V.I., Raddl R., Morales A., Xudiyakov Yu.F., Naboychenko S.S., Bogachev L.M., Snurnikov A.P., Navtanovich M.L., Romazanova I.I., Belousova A.E., Masleniskiy I.N., Vanyukov A.V., Antipov N.I., Chen T., Meretukov M.A., Bistrov V.P., Mastuygin S.A., Strijko L.S., Shadrinova I.V., Sanakulov K.S., Yusupxodjaev A.A., Yakubov M.M., Xasanov A.S., Sharipov X.T. va boshqa olimlar salmoqli hissalarini qoʻshganlar.

Jahon amaliyotida mis eritish zavodlarida mayda changlar toʻgʻridan-toʻgʻri pirometallurgik jarayonlar orqali qayta ishlashga yoʻnaltirilgan texnologiyasi oʻzini yaxshi isbotladi. Ushbu texnologiya chang va shlam tarkibidagi qoʻrgʻosinni eritmaga oʻtkazilish jarayoni jadal tuzli muhitda olib boriladigan, shu bilan birga nodir metallarni, ayniqsa kumushni choʻkmada qoldirib, mahsuldor eritmalarni keyingi qayta ishlash tindirib choʻktirish, filtrlash hamda toblash va tiklab eritishni oʻz ichiga oladigan, hozirgi vaqtda qayta ishlanmayotgan, shuningdek, atrof-muhitning ifloslanishi bilan bogʻliq boʻlgan chang va shlamlarni ishlab chiqarishga jalb qilish imkonini beradi.

Shuning uchun mis ishlab chiqarish jarayonidagi chang-gaz oqimidan rangli va nodir metallarni ajratib olish texnologiyasini tadqiq qilish, ishlab chiqish va takomillashtirish, shuningdek, uni amaliyotga joriy etish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy taʼlim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bogʻliqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq amalga oshirilgan boʻlib: AL-492105235 – “Konsentratlar va boyitish qoldiqlarini koʻp bosqichli qayta ishlash orqali metallarni boyitishning yangi kombinatsiyalangan innovatsion usuli yordamida texnogen chiqindilardan qimmatbaho (platina, palladiy, rodiy, kumush, oltin) va nodir (litiy, germaniy) metallarni ajratib olish texnologiyasini ishlab chiqish” (2022-2024 y.) va 414M – “Mis sanoati chang va gazlari chiqindilarini kompleks qayta ishlash asosida qoʻshimcha rangli metallar (mis, qoʻrgʻoshin, rux, oltin va kumush) olish texnologiyasini ishlab chiqish” (2022-2023 y.) mavzularidagi loyihalar doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi sulfat kislota ishlab chiqarishdan hosil bo'lgan qo'rg'oshin-vismutli shlamlar va konverterli qayta ishlash jarayonidagi elektrofiltrning mayin changidan rangli va nodir metallar miqdorini boyitishga qaratilgan texnologiyani ishlab chiqish va takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

mis eritish jarayonlarining chang-gaz mahsulotlarida rangli va nodir metallar konsentratsiyasining ortishini nazariy asoslash, sulfat kislota ishlab chiqarishda hosil bo'ladigan qo'rg'oshin-vismutli shlaning va konverter mayin changlarining granulometrik va mineral tarkibini ilmiy tadqiq etish;

qo'rg'oshindan iborat bo'lgan chang va shlamdan uni ajratib olishga turli omillarning ta'sirini tadqiq qilish hamda uni tanlab eritishning maqbul ko'rsatkichlarini nazariy va kinetik qonuniyatlarini tadqiq qilish;

qo'rg'oshin xlorid eritmasidan uni cho'ktirish va filtrlash usullarini optimal rejim parametrlarini aniqlash kinetikasini tadqiq qilish;

bo'tanani quyultirish va tindirishning optimal rejim parametrlarini ilmiy asosini o'rgangan holda cho'kmani qaynoq filtrlash jarayonini va uning xossalarini ilmiy tadqiq etish;

sulfat kislota ishlab chiqarish shlami va MEZning mayin konverter changidan hosil qilingan qorishmadan qo'rg'oshinni natriy xlorid bilan tanlab eritish, mis, rux ajratib olish bilan birga uning tarkibidan nodir metallarni boyitishning kompleks texnologiyasini ishlab chiqish va joriy etish;

“Olmaliq KMK” AJ mis eritish zavodining sulfat kislota ishlab chiqarish shlami va mayin konverter changidan nodir (oltin, kumush, platina va palladiy) metallarga boyitilgan boyitma kek ajratib olishning takomillashtirilgan texnologiyasini yaratish hamda uskunalari zanjiri sxemasini ishlab chiqish.

Tadqiqotning ob'ekti sifatida “Olmaliq KMK” AJ mis eritish zavodida sulfat kislota ishlab chiqarish jarayonida gazlarni suvli tozalashdan hosil bo'ladigan shlamlar hamda mis shteynini konverterlash vaqtida paydo bo'ladigan mayda chang olingan.

Tadqiqotning predmetini sulfat kislota ishlab chiqarish shlami va konverter mayin changidan qo'rg'oshinni tanlab eritish orqali ajratib, qoldiq kekda nodir metallarni cho'ktirish va filtrlash orqali boyitish texnologiyasini ishlab chiqish va takomillashtirish tashkil etgan.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya ishini bajarishda rangli va nodir metallarni ajratib olish texnologiyasini ishlab chiqish bo'yicha ilmiy-texnik ma'lumotlarning nazariy tahlili, analitik, atom-adsorbsion va fotokalorimetrik usullardan foydalangan holda nazariy tadqiqotlar; laboratoriya texnologik tajribalari va tajriba-sanoat sinovlari; pH-metriya, granulometrik tahlil, rentgen difraksion tahlil, probir, kimyoviy va fazaviy tahlil usullari, rentgen fazali tahlil, mass-spektral tahlil, skanerlovchi elektron mikroskopida (SEM) hamda laboratoriya sinovlari natijalarini qayta ishlashning matematik usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

sulfat kislota ishlab chiqarish qo'rg'oshin-vismutli shlami va konverter changining granulometrik va mineral tarkibi asosida ularning o'ta mayda 0,1-10

mkm o'ldamda ekanligi aniqlangan hamda misni eritish jarayonlarining chang-gazli mahsulotlarida rangli va qimmatbaho metallarning hosil bo'lishi va to'planishi nazariy jihatdan asoslangan;

qo'rg'oshin-vismutli shlam va konverter changini suvda yuvish va dekantatsiyalash jarayoni cho'kmasidan qo'rg'oshinni natriy xlorid bilan ikki bosqichli tanlab eritish orqali 91,9% qo'rg'oshinni eritmaga o'tkazish, shuningdek, 96,59% mis, 95,1% rux va 79,0% kumushni hamda oltin, platina va palladiyni to'liq kekka ajratib olish imkonini beruvchi boyitish texnologiyasining parametrlari ishlab chiqilgan;

tanlab eritish texnologik eritmasini quyultirish-tindirish va dekantatsiyalash orqali cho'kmani filtrlash jarayonida qo'rg'oshin xloridni ajratishga va filtrlash tezligini 3 barobar oshirishga imkon beruvchi maqbul parametrlar aniqlangan;

qo'rg'oshinni xlorid eritmasidan cho'ktirishda, pH 8,5-9 va 20 °C haroratda karbonatlash orqali 72% Pb tarkibli qo'rg'oshin karbonat kimyoviy boyitmasini olish imkonini beradigan maqbul parametrlar aniqlangan;

qo'rg'oshin-vismutli shlam va konverter changidan rangli va nodir metallarni boyitmaga kompleks ajratib olishning takomillashtirilgan texnologik sxemasi hamda apparatlar zanjiri sxemasi ishlab chiqilgan;

tarkibida nodir metallar bo'lgan tuzli tanlab eritishdan keyin olingan kekni eritish qonuniyatlari asoslangan va nodir metallarni shteyn fazasiga o'tkazish parametrlari aniqlangan, texnologik jarayon to'liq ishlab chiqilgan va takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

konverter changi va sulfat kislota ishlab chiqarishda hosil bo'lgan qo'rg'oshin-vismutli shlamning kimyoviy, granulometrik va mineral tarkibi ilk bor batafsil aniqlangan;

tavsiya etilgan texnologiya "Olmaliq KMK" AJ bosh muhandisining 13.04.2024 yilda tasdiqlangan 01-FMSh/24-04-01701-sonli farmoyishiga asosan, 13.04.2024 yildan 30.10.2024 yilgacha bo'lgan davrda rangli va nodir metallarni boyitib ajratib olish maqsadida MEZning qo'rg'oshin-vismutli shlami hamda konverter changini qayta ishlash dasturi bo'yicha ishlab chiqilgan;

sulfat kislota ishlab chiqarish shlami va konverter mayin changini natriy xlorid bilan tanlab eritishda kumushning eritmaga o'tish sabablari aniqlangan va kumushning xlorli eritma bilan yo'qotilishini minimallashtirishning rejim parametrlari ishlab chiqilgan;

"Olmaliq KMK" AJ MEZning sulfat kislota ishlab chiqarish shlami va konverter changidan rangli va nodir metallarni boyitib ajratib olishning yangi texnologik sxemasi ishlab chiqilgan, uni ishlab chiqarishga joriy etish natijasida tarkibida 99,9% qo'rg'oshin bo'lgan metall qo'rg'oshin va tarkibida nodir metallar saqlagan boyitma kek olingan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi quyidagilar bilan tasdiqlanadi: laboratoriya va tajriba-sanoat sinovlari natijalarining yetarli va statistik jihatdan asoslangan hajmi, ishlab chiqilgan tuzli tanlab eritish, quyultirish, tindirish, filtrlash va tanlab cho'ktirish rejimlarini qo'llash natijasida

qimmatbaho komponentlarni boyitib ajratib olishni oshirish bo'yicha ishning asosiy g'oyasini miqdoriy jihatdan tasdiqlash, olinadigan boyitma va metalning tozalik darajasini oshirishni tasdiqlovchi ijobiy natijalar, shuningdek, tajriba-sanoat sinovlarining ijobiy dalolatnomalari bilan isbotlangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati qo'rg'oshin-vismutli shlam va konverter mayin changidan rangli va nodir metallarni ajratib olishga ta'sir etuvchi omillarning aniqlanganligi, boyitish va qayta ishlashning yangi ekologik va iqtisodiy samarador texnologik sxemasini qo'llashning maqsadga muvofiqligi nazariy jihatdan asoslanganligi va boyitish sxemasida ishtirok etuvchi jarayonlarning optimal rejim parametrlarini aniqlanganligi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati qo'rg'oshin-vismutli shlam va mayin changidan iborat qorishmani qayta ishlashning takomillashtirilgan texnologiyasi ishlab chiqilganligi, bunda tarkibida Pb - 99,9% va ajralishi 80,04% bo'lgan metall qo'rg'oshin olish hamda yuqori rentabellikka ega bo'lgan, tiklovchi eritishga yo'naltiriladigan tarkibida nodir metallar (g/t: 22,6 Au, 416,1 Ag, 29,3 Pt, 16,0 Pd) bo'lgan boyitma kek olishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Mis ishlab chiqarish chang-gaz mahsulotlaridan rangli va nodir metallarni ajratib olishning takomillashtirilgan texnologiyasini ishlab chiqish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

Sulfat kislota ishlab chiqarish sexi qo'rg'oshin-vismutli shlami (80%) va konverter mayin changi (20%)dan rangli va nodir metallarni kompleks ajratib olishning texnologik sxemasi "Olmaliq KMK" AJ mis eritish zavodida amaliyotga joriy etilgan ("Olmaliq KMK" AJning 2024 yil 16 avgustdagi 08-24/01-01084-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, uzoq yillardan buyon yig'ilib turgan texnogen chiqindilar tarkibidagi nodir metallarni boyitmaga ajratib olish imkonini bergan;

sulfat kislota ishlab chiqarish sexi qo'rg'oshin-vismutli shlami va konverter mayin changini ikki bosqichda texnik tuz qo'shgan holda tuzli tanlab eritish va eritmani quyultirish-tindirish, dekantatsiyalash hamda qoldiqni qaynoq filtrlash texnologiyasi "Olmaliq KMK" AJ mis eritish zavodida amaliyotga joriy etilgan ("Olmaliq KMK" AJning 2024 yil 16 avgustdagi №08-24/01-01084-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, qo'rg'oshinning 92%i eritmaga o'tkazilgan va tarkibida (g/t): 16 Pd; 29,3 Pt; 22,6 Au; 416,1 Ag; va (%): 3,88 Cu; 2,6 Zn bo'lgan boyitma kek olishga va filtrlash tezligini 3 marta oshirish imkonini bergan;

Tuzli tanlab eritishdan so'ng hosil bo'lgan qo'rg'oshin xlorid eritmasini karbonatlab cho'ktirishning maqbul parametrlari "Olmaliq KMK" AJ mis eritish zavodida amaliyotga joriy qilingan ("Olmaliq KMK" AJning 2024 yil 16 avgustdagi 08-24/01-01084-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, eritmadan pH=8,5-9,0 bo'lguncha Na₂CO₃ qo'shgan holda qo'rg'oshinni karbonat holda cho'ktirib, filtrlash orqali tarkibida 70% dan ortiq qo'rg'oshin bo'lgan kimyoviy boyitma olishga va olingan qo'rg'oshin karbonatini tiklab eritish orqali 99,9% tozalikdagi qo'rg'oshin metalini olish imkonini bergan;

Sulfat kislota ishlab chiqarish sexi qo'rg'oshin-vismutli shlami va konverter mayin changini tuzli tanlab eritishdan olingan boyitma kekni yallig' qaytaruvchi

pechda eritishning texnologik sxemasi “Olmaliq KMK” AJ mis eritish zavodida ishlab chiqarishga joriy etilgan («Olmaliq KMK» AJning 2024 yil 16 avgustdagi №08-24/01-01084-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, boyitma kek tarkibidagi qimmatbaho metallarning, jumladan, (%ini): 96 Au; 95 Ag; 90 Pd; 86 Pt, 94 Zn va 97 Cu shteynga ajralish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 6 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 28 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, 1 ta foydali modelga patent, 2 ta monografiya, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 10 ta maqola nashr etilgan, jumladan, 7 ta respublika va 3 ta xorijiy jurnallarda.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiyaning tarkibi kirish, beshta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 200 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida olib borilgan tadqiqotning dolzarbligi va unga bo‘lgan talab asoslangan, muammoning o‘rganilganlik darajasi bayon etilgan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, ob’ekti va predmeti tavsiflangan, tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishning muhim yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, natijalarning ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, natijalarning amaliyotga joriy etilishi, e’lon qilinganligi, dissertatsiya ishining tuzilishi to‘g‘risidagi ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**Mis sanoati chiqindi gaz va changlaridan nodir va rangli metallarni ajratib olish nazariyasi va amaliyotining hozirgi holati**” deb nomlangan birinchi bobida tegishli adabiyotlar tahlili amalga oshirilgan va ular asosida mis sanoati chiqindilari, oraliq mahsulotlari, xususan eritish pechlarining chang va gazlarini kompleks qayta ishlash va foydalanishga tiklashning hozirgi holati va uni rivojlantirish yo‘nalishlari tahlil qilingan.

Bugungi kunda ilmiy-texnik taraqqiyotning jadal rivojlanishi tabiiy resurslarning iste’molini keskin ortishi va parallel ravishda ishlab chiqarish chiqindilarining miqdorini o‘sib borishi bilan birga kechmoqda, bunda oqilona foydalanish muammosi sanoat ishlab chiqarishi samaradorligi bilan, atrof-muhit muhofazasi bilan va chiqindilarni foydalanishga tiklash sohasidagi yangi ishlanmalar bilan uzviy ravishda bog‘liqdir.

Xorijda mis eritish zavodlarida eritish bo‘linmasidan chiqadigan mayin chang va sulfat kislota sexi shlamlarini chiqindi omborlariga chiqarish yoki amaldagi metallurgik korxonalarda samarasiz foydalanishga yo‘naltirilgan, bularning asosiy kamchiliklari chang-gaz otqinlari va ular bilan bog‘liq bo‘lgan qimmatbaho elementlarning yo‘qotilishi hisoblanadi. Konverter changini qayta ishlashning asosiy usuli pirometallurgik jarayonlar hisoblanib, ulardan olinadigan mahsulotlar sifati past bo‘lib, gazlardan tozalash va zararsizlantirish lozimdir. Pirometallurgik

agregatlarda texnogen chiqindilarni qayta ishlashda olinadigan mahsulotlar ko'p hollarda qo'shimcha tarzda oxirigacha qayta ishlashni talab qiladi, bu pirometallurgik sxemalar samaradorligini ancha pasaytiradi.

Shuningdek, respublikamizdagi metallurgik zavodlarda mis eritish jarayonida hosil bo'ladigan mayin chang hamda sulfat kislotasi sexi shlamlari qayta ishlashga jalb qilinmagan, bugungi kunda ular to'planib, chiqindixonalar va chiqindi omborlari ancha yer maydonlarini ajratishni talab qilmoqda hamda yondosh hududlarda ekologik vaziyatni izdan chiqishiga olib kelmoqda. Shuning uchun mis eritish amaliyotida konverter changi va sulfat kislotasi ishlab chiqarish sexi shlamlaridan rangli va nodir metallarni ajratib olish uchun boyitishning natriy xloridli tanlab eritmaga o'tkazish, quyultirish-tindirish, filtrlash va karbonatlashni o'zida birlashtirgan takomillashtirilgan texnologiyasini ishlab chiqish asosida tadqiqotning maqsad va vazifalari belgilangan.

Dissertatsiyaning **“Tadqiqot ob'ektlari va usullari”** deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqot ob'ektlaridagi chang va shlamning fizik-kimyoviy xossalari, moddiy va mineral tarkibi hamda tadqiqot usullari o'rganilgan. Shuningdek, konverter mayin changi va qo'rg'oshin-vismutli shlam tarkibidan rangli va nodir metallarni boyitib ajratib olish jarayonlarida tanlab eritmaga o'tkazish, bo'tanadagi mayda dispers zarrachalarni quyultirish-tindirish va qaynoq holda filtrlashning tadqiqot usullari ishlab chiqilgan.

Ushbu bobda dissertatsiya ishining uslubiy qismini, shu jumladan tadqiqot ob'ektlarining xossalari o'rganish usullari taqdim etilgan. Tadqiqot uchun laboratoriya tajribalari, tajriba-sanoat sinovlari, granulometrik tahlil, elektron mikroskopiya, probirli tahlil, tahlilning kimyoviy va fazaviy usullari, rentgen fazali tahlil, fotometrik tahlillari o'tkazilgan. Kimyoviy tahlil natijalari 1-jadvalda keltirilgan.

Tadqiqotlar natijasida chang va qo'rg'oshin-vismutli shlamning quyidagi xususiyatlari aniqlandi: Konverter mayin changi zichligi $1,37 \text{ t/m}^3$, zarralari yirikligi 1-45 mkm (82%-i 1,5-30 mkm) bo'lgan oq va och-kulrang mayindispers harakatchan kukundan iborat. Shlamning o'rtacha namligi 9-11%, mavsumiy tebranishlarda 5 dan 15% gacha; dastlabki yirikligi 0,2 dan 20 mikrongacha (shlam zarrachalarining 95% ning o'lchami 0,3 – 12 mkm oralig'iga to'g'ri keladi). Oqova suvining to'planishi va havoda qurishi jarayonida shlam 1 mm dan 250 mm gacha bo'lgan o'lchamdagi alohida agregatlar hosil qiladi, fraksiyalarning o'lchamlari nazoratsiz va oldindan aytib bo'lmaydi; tarkibidagi asosiy material – sovutilgan gazlarda sublimatlar shaklida mayin disperslangan PbSO_4 dir. Shlamning tabiiy holatdagi zichligi $1,9 \text{ g/sm}^3$, zichlashganda esa $2,1 \text{ g/sm}^3$, maydonda yig'ilgan shlamning dastlabki pH qiymati 1,5-2,1, ya'ni, kislotali muhit.

1-jadvaldagi ma'lumotlardan ko'rinadiki, dastlabki mahsulot tarkibida qiymat miqdoriga ko'ra eng ko'p uchragan komponent qo'rg'oshin bo'lib, uning ulushi changda 32,6%, shlamda esa 45,0% ni tashkil etadi. Undan tashqari ruxning miqdori changda 7,7% ni, oltingugurt esa changda 13,15% va shlamda 9,79% ni tashkil qiladi. Gipsning miqdori shlamda 7,7% gacha.


Konverter changi va qo'rg'oshin-vismutli shlamning kimyoviy tarkibi

| Element, modda | Na'muna nomi va komponent miqdori, % | |
|------------------|--|----------------------------|
| | Konverter changi | Qo'rg'oshin-vismutli shlam |
| Pb | 32,6 | 45,0 |
| Cu | 2,0 | 2,6 |
| Zn | 7,7 | 0,2 |
| Fe | 0,46 | 2,57 |
| Bi | 0,19 | 0,33 |
| SiO ₂ | 0,65 | 4,25 |
| S _{um} | 13,15 | 9,79 |
| S _{SO4} | 8,56 | 8,32 |
| CaO | 0,91 | 2,84 |
| MgO | 0,06 | 0,33 |
| Gips | - | 7,7 |
| Element, modda | Na'muna nomi va komponent miqdori, g/t | |
| Au | 4,0 | 16,0 |
| Ag | 180,0 | 350,0 |
| Pd | - | 12,0 |
| Pt | - | 22,0 |


Qimmatbaho komponentlardan chang va shlam tarkibida, mos holda: Cu – 2,0 va 2,6%, Bi – 0,19 va 0,33%, Au – 4,0 va 16,0 g/t, Ag – 180,0 va 350,0 g/t kabi ko'plab qimmatbaho metallarni ko'rish mumkin. Bundan tashqari Pd va Pt ning shlam tarkibidagi miqdori 12 va 22 g/t ni tashkil qiladi.

Dissertatsiyaning **“Mis eritish jarayonidan ajralgan changlar va sulfat kislota sexi shlamlarini qayta ishlash texnologiyasini ishlab chiqish va takomillashtirishning ilmiy asoslari”** deb nomlangan uchinchi bobida chang va shlamni qayta ishlash uchun ularning qorishmasini maqbul nisbatini o'rnatish, qorishma tarkibidagi qo'rg'oshinni eritmaga o'tkazish orqali kekda nodir metallarning miqdorini oshirish va eritmaga o'tkazilgan qo'rg'oshinni cho'ktirib ajratib olish borasida o'tkazilgan tadqiqotlar natijalari keltirilgan.

Qo'rg'oshin-vismutli shlam uzoq vaqtlardan buyon sulfat kislotasiga to'yinib, shimilib yotganligi sababli uning pH muhiti o'ta nordon (pH=1,5-2) holatga kelib qolganligi tufayli tanlab eritish jarayonida eritish reaktorlari va boshqa texnologik uskunalarda ishchi qismlariga salbiy ta'sir ko'rsatib, ularni yemirilishiga olib keldi. Shu sababli mis shteynini konverterlash jarayonida chiqadigan gazlarni elektr filtrlarda tozalashdan hosil bo'lgan mayin chang bilan qo'rg'oshin-vismutli shlamni aralashtirib, qorishma (shixta) hosil qilish natijasida qayta ishlanadigan mahsulotning pH muhitini ko'tarish bilan bir vaqtning o'zida changni ham qayta ishlashga yo'naltirish masalasiga e'tibor qaratildi. Qo'rg'oshin-vismutli shlam va konverter o'ta mayda changini qayta ishlash uchun aralashtirib, qorishma tayyorlash sxemasi 1-rasmda keltirilgan.



1-rasm. Qo'rg'oshin-vismutli shlam va konverter o'ta mayda changini qayta ishlash uchun aralashtirib, qorishma tayyorlash sxemasi




2-rasm. Qo'rg'oshin-vismutli shlam va chang qorishmasining pH muhitini shlam va chang miqdorlari nisbatiga bog'liqligi

2-rasmdan ko'rinadiki, qorishmadagi changning ulushini ortishi bilan qorishmaning nordonligi kuchsizlanadi, ammo qorishmadagi qo'rg'oshin-vismutli shlam va changning nisbati 1:1 bo'lganda ham uning nordonligi pH=4,3 dan ko'tarilmaydi. Shuning uchun muhitning nordonligini 6-6,5 ga yetkazish uchun yuvish jarayoni o'tkazildi.


Yuvish jarayoniga ohak qo'shildi, 20 daqiqa aralashtirilib, tindirildi va nordon eritma dekantatsiya qilinib, cho'kma tuzli tanlab eritishga yuborildi. Shuni e'tiborga

olish kerak-ki, chang tarkibida ruxning miqdori qo'rg'oshin-vismutli shlamdagiga nisbatan 35-40 barobar ko'p va mis hamda ruxning asosiy qismi sulfat ko'rinishidadir. Yuvish jarayonida chang tarkibidagi mis va ruxning eritmaga o'tib, yo'qotilishini oldini olish maqsadida qo'rg'oshin-vismutli shlamga nisbatan qorishmadagi changning miqdorini 80:20 % nisbatda olish eng maqbul yechim ekanligi o'rnatildi.


Cho'kmadagi qo'rg'oshinni eritmaga o'tishining optimal ko'rsatkichlarini aniqlash uchun natriy xlorid eritmasini turli xil konsentratsiyalarida tajribalar o'tkazildi. Natriy xlorid konsentratsiyasini mos ravishda 180 g/l dan - 260 g/l gacha o'zgartirgan holda 80-95 °C haroratda 70-130 daqiqa davomida tadqiqotlar o'tkazildi.




3-rasm. 80°C haroratda qo'rg'oshinni eritmaga ajralishini natriy xloridining konsentratsiyasi va eritish vaqtiga bog'liqligi



4-rasm. 80°C haroratda kumushni eritmaga ajralishini natriy xloridining konsentratsiyasi va eritish vaqtiga bog'liqligi



5-rasm. 90°C haroratda qo‘rg‘oshinni eritmaga ajralishini natriy xloridining konsentratsiyasi va eritish vaqtiga bog‘liqligi




6-rasm. 90°C haroratda kumushni eritmaga ajralishini natriy xloridining konsentratsiyasi va eritish vaqtiga bog‘liqligi


5- va 6-rasmlarda keltirilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, bir bosqichli natriy xloridli tanlab eritish natijasida dastlabki qorishma tarkibidagi qo‘rg‘oshinning 70% gacha miqdori eritmaga o‘tadi. Shuni ham e‘tiborga olish kerakki, eritmaga kumushning ham bir qismi ajraldi. Vaholangki, adabiyotlarda kumushning natriy xloridida eritmaga o‘tmasligi ta’kidlangan. Harorat 90-95°C dan ko‘tarilishi mahsulot tarkibidagi kumushning eritmaga ko‘p miqdorda o‘tib ketishiga olib keldi. Bundan tashqari eritmada natriy xlorning konsentratsiyasining ortishi kumushning erishini jadallashtirishi kuzatildi. Shuning uchun qo‘rg‘oshinni kekdan eritmaga ajralishini oshirish maqsadida ikkinchi bosqich natriy xloridli tanlab eritish jarayoni 80-95°C haroratda natriy xloridning 180-220 g/l konsentratsiyasida Q:S = 1:4 nisbatda 60-105 daqiqada davomida amalga oshirildi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, tanlab eritish jarayonida haroratning 92°C dan oshishi va NaCl konsentratsiyasi 220 g/t dan ortishi eritmaga nafaqat qo‘rg‘oshinning, balki kumushning ham ajralishini jadallashtirib yuboradi. Shuning

uchun jarayon davomida harorat 90-92°C dan, NaCl konsentratsiyasi 200 g/t dan oshirilmagan holda ushlendi.




7-rasm. Ikkinchi bosqich tanlab eritish eritmasiga 90°C haroratda qo'rg'oshinni ajralishini NaCl konsentratsiyasi va vaqtiga bog'liqligi



8-rasm. 90°C haroratda kumushni eritmaga ajralishini natriy xloridining konsentratsiyasi va eritish vaqtiga bog'liqligi

Olib borilgan laboratoriya tadqiqotlari natijalaridan ma'lum bo'ldiki, bir bosqichli tanlab eritishda qo'rg'oshin eritmaga to'liq ajralmaydi (66-68%) (5-rasm), birinchi bosqich tanlab eritishdan so'ng filtrlash kekini 90 daqiqa davomida 200 g/l konsentratsiyali natriy xlorid eritmasida ikkinchi bosqichda tanlab eritishdan so'ng 91,9% qo'rg'oshin eritmaga o'tdi (9-rasm).


Shuni e'tiborga olgan holda konverter changi va qo'rg'oshin-vismutli shlamdan tayyorlangan qorishma tarkibidan qo'rg'oshinni natriy xloridli tanlab eritishning maqbul parametrlari quyidagicha o'rnatildi: harorat – 90-92°C, tanlab eritish davomiyligi 1-bosqichda 120 daqiqa, 2-bosqichda 90 daqiqa, NaCl konsentratsiyasi 1-bosqichda 220 g/l, 2-bosqichda 200 g/l.




9-rasm. 90°C haroratda NaCl ning 220 g/l konsentratsiyasida ikki bosqichda tanlab eritishdan so‘ng eritmaga Pb va Ag ning ajralishi

Quyultirish-tindirish va filtrlash jarayonlari davomida bo‘tananing harorati 90-92°C dan pasaymasligi zarur, aks holda qo‘rg‘oshin xloridining jadallik bilan kristallanib cho‘kmaga tushishi kuzatiladi.

Qo‘rg‘oshin xloridli eritmadan qo‘rg‘oshinni karbonatlab cho‘ktirish bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqotlarda eritmaning pH muhiti, harorat va natriy karbonatining miqdorini jarayonning borishiga ta‘siri o‘rganildi. Natriy karbonati qo‘rg‘oshin xloridining suvli eritmasiga qo‘shilganda karbonizatsiya quyidagi reaksiyaga ko‘ra boradi:




Tadqiqotlar 15-65°C haroratlarda, texnik kaustik sodaning 170 g/l miqdoridagi soda eritmasi qo‘shish bilan olib borildi. Tajriba natijalari 10 va 11-rasmlarda keltirilgan.



10-rasm. Karbonatlab cho‘ktirishda qo‘rg‘oshinni kek tarkibiga ajralishini pH va haroratga bog‘liqligi

Tadqiqot natijalaridan ko‘rinadiki, karbonatlash jarayonida eritma haroratining ko‘tarilishi bilan qo‘rg‘oshinning cho‘kmaga tushishi tezlashdi.



11-rasm. Karbonatlab cho'ktirishda kumushni kek tarkibiga ajralishini pH va haroratga bog'liqligi

Harorat 20°C gacha ko'tarilguncha ham qo'rg'oshinning, ham kumushning cho'kmaga ajralishi ortib bordi va keyinchalik haroratning ko'tarilishi ajralishga salbiy ta'sir qilib boshlaydi.

Natriy karbonat va qo'rg'oshin xloridining eritmadagi konsentratsiyasi ularning reaksiyaga kirishish ehtimoliga va reaksiya tezligiga ta'sir qiladi, konsentratsiya yuqori bo'lganda reaksiya tezroq kechadi va qo'rg'oshin karbonatining ($PbCO_3$) hosil bo'lishi samaraliroq bo'ladi. Agar reaksiya vaqti juda uzoq bo'lsa, natijada moddalarning taqsimlanishi yoki butun reaksiyaning samaradorligi pasayishi mumkin. Tajribalar davomida kuzatildiki, karbonatlash jarayonining dastlabki 15-20 daqiqasida cho'kmaga tushish jadal sur'atda kechdi, keyingi 10 daqiqa davomida eritmada qolgan qo'rg'oshin sekin asta cho'kishda davom etdi.

10 va 11-rasmlardan ko'rinadiki, mos holda qo'rg'oshin va kumushning cho'kmaga tushishi pH 8,8-9 ga yetganda optimal qiymatga erishadi, pH ning 9 dan ortishi ajralishga sezilarsiz ta'sir etadi.

Tuzli tanlab eritishdan so'ng hosil bo'lgan qo'rg'oshin xlorid eritmasidan qo'rg'oshinni sulfatlab cho'ktirish bo'yicha tadqiqotlar konsentrlangan sulfat kislotasining 25, 30, 35 g/l sarflarida 20, 40, 60 °C haroratda o'tkazildi.


Har qaysi rejimda sulfatlashdan so'ng hosil bo'lgan cho'kma kek tarkibidagi qo'rg'oshinning miqdori va uning ajralishi aniqlandi.

Qo'rg'oshin xloridni sulfatlash jarayoni qo'rg'oshinni cho'ktirish imkonini bersa-da, qo'rg'oshin va uning birikmalarining zaharli ekanligini unutmaslik lozim, bundan tashqari sulfatlash jarayoni qo'shimcha kislotaga chidamli uskunalarni talab qiladi, zararli oqavalar miqdorini oshiradi va mehnat sharoitini yomonlashtiradi.

Qo'rg'oshin xloridining karbonizatsiyasi qo'rg'oshin xlorid eritmasidan qo'rg'oshinni hech qanday oldindan tayyorgarliksiz cho'ktirish imkonini beradi. Ekologik xavfsizlik va mavjud konstruksion po'latlardan yasalgan uskunalardan foydalanish imkoniyati ushbu jarayonning afzalligini ta'minlaydi.

Karbonatlashdan so‘ng olingan $PbCO_3$ kek $450^\circ C$ haroratda toblandi va glyot (PbO) olindi. Toblashga jalb etilgan namuna tarkibida qo‘rg‘oshinning miqdori 72% va kumushning miqdori 138g/t ni tashkil etadi.

Qo‘rg‘oshin karbonatini qo‘rg‘oshin oksid PbO ga termik parchalanishi asosan 3 bosqichda kechib, toblash haroratiga bog‘liqligi tadqiq qilindi. Birinchi bosqich mos holda $50-250^\circ C$ ga to‘g‘ri kelib, bunda massaning kamayishi suvning yo‘qotilishi evaziga sodir bo‘ladi. Ikkinchi bosqich $250-400^\circ C$ oralig‘iga to‘g‘ri kelib, karbonat angidritning ajralib chiqishi evaziga massaning tez kamayishi bilan boradi. Uchinchi bosqich $400-450^\circ C$ oralig‘iga to‘g‘ri kelib, oksidlarning parchalanishi bilan sodir bo‘ladi va termik parchalanish jarayoni $470^\circ C$ to‘liq nihoyasiga yetadi. Tadqiqot natijalari 12-rasmda keltirilgan.




12-rasm. Toblanashdan so‘ng kek tarkibidagi qo‘rg‘oshin miqdorining toblash vaqti va haroratiga bog‘liqligi

12-rasmdan ko‘rinadiki, $350-400^\circ C$ haroratda toblash natijasida kuyindi tarkibidagi qo‘rg‘oshinning miqdori 78% dan oshmadi. $450^\circ C$ haroratda esa toblash vaqtining davomiyligi muhim rol o‘ynaydi, ya‘ni vaqtning oshib borishi kuyindida qo‘rg‘oshinning miqdorini oshib borishiga olib keldi va 80 daqiqadan so‘ng 86,8% ni tashkil etdi. $470^\circ C$ haroratda toblashda kuyindida qo‘rg‘oshinning miqdori jarayon davomiyligi 50 daqiqaga yetguncha jadal oshib bordi va so‘ngra vaqtning oshishi toblash jarayoniga deyarli ta‘sir qilmadi. Toblash jarayonida haroratning $470^\circ C$ dan ortishi toblash natijalarini yaxshilanishini ta‘minlamadi.

Yuqoridagilarni e‘tiborga olgan holda bajarilgan tadqiqot natijalariga ko‘ra, qo‘rg‘oshin karbonat cho‘kmalarini toblash jarayonining quyidagi optimal parametrlari o‘rnatildi: toblash jarayonining davomiyligi 50 daqiqa va jarayonning harorati $470^\circ C$.

Toblashdan so‘ng PbO tarkibida qo‘rg‘oshinning miqdori 91,1% ni tashkil qildi.


Qo‘rg‘oshin oksidini uglerod yordamida metall holatigacha tiklash termodinamik hisob-kitoblarga ko‘ra quyidagi reaksiya bo‘yicha yuqori haroratda boradi:



Olingan kuyindini tiklovchi muhitda harorat 880°C dan 930°C gacha ko'tarilgan holda turli intervallar va har hil vaqt oralig'ida eritish tajribalari o'tkazildi (13-rasm). Eritish jarayonida tiklovchi sifatida grafit, flyus sifatida kaustik sodadan foydalanildi. Bunda 1000 gr PbO uchun 59 gr grafit va 30 gr kaustik soda qo'shildi.

Tadqiqot natijalaridan ko'rinadiki, tiklab eritish jarayonida qo'rg'oshinning metall holigacha tiklanish reaksiyalari 910-920°C harorat oralig'ida yakun topib, u tiklash daomiyligiga bog'liq.

Tiklab eritish davomiyligi 50 daqiqaga yetganda metall tarkibidagi qo'rg'oshinning miqdori optimal qiymatga erishadi va haroratning keyingi oshishi jarayonning borishiga ijobiy ta'sir ko'rsatmaydi.



13-rasm. Eritishdan so'ng quyma tarkibidagi qo'rg'oshin miqdorining haroratga va eritish vaqtiga bog'liqligi


Tadqiqotlar natijalari asosida toblashdan so'ng olingan tarkibida qo'rg'oshinning ulushi 91,1% bo'lgan kukunni uglerod yordamida tiklab eritish jarayonining quyidagi maqbul parametrlari o'rnatildi: - uglerod yordamida tiklab eritish jarayoni davomiyligining maqbul qiymati 50 daqiqani tashkil etadi; - tiklash muhitida eritish jarayonining maqbul harorati 920°C. Shunday qilib, eritish natijasida tarkibidagi qo'rg'oshinning miqdori 99,91% bo'lgan metall holdagi qo'rg'oshin olindi.

